

**QIPCHOQ LAHJASIGA MANSUB SHEVALARDA  
ISHLATILUVCHI AYRIM LEKSIK BIRLIKLARNING LINGVISTIK  
XUSUSIYATLARI**

*O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi*

*1-bosqich talabasi Xo‘jayorov Bahrom Alisher o‘g‘li*

*Ilmiy rahbar: O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasasi assistenti*

*Yusupov Sardor Shodi o‘g‘li*

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada o‘zbek adabiy tilining tayanchi va asosi bo‘lgan shevalar hamda ularda qo‘llaniluvchi leksik birliklar haqida gap boradi. Shevaga oid leksik birliklar, asosan, fonetik jihatdan va qisman leksik-grammatik jihatdan adabiy tildagi birliklardan farq qiladi. Shularni nazarda tutgan holda maqolada qiyoslash metodi orqali bunday birliklarning farqli tomonlarini ko‘rsatib o‘tishga harakat qilindi.*

***Kalit so‘zlar:** adabiy til, yozma va og‘zaki adabiy til, Samarqand viloyati Ishtixon tumani shevasi, fonetik farqlanish, leksik farqlanish, grammatik farqlanish, qarindosh-urug‘chilik leksikalari, uy-ro‘zg‘or buyumlari leksikasi.*

Adabiy til deganda, tilning me‘yorlashgan shakli bo‘lib, jamiyat tomonidan qabul qilingan va turli sohalarda ishlatiladigan til ko‘rinishi tushuniladi. U barcha uchun tushunarli, qat‘iy qoidalarga asoslangan va madaniy birlikni ta‘minlaydi. Adabiy til davlat hujjatlari, ilmiy asarlar, badiiy adabiyot, rasmiy muloqot va boshqa rasmiy sohalarda qo‘llaniladi.

“Sheva” atamasi forscha so‘z bo‘lib, ovoz, til, so‘zlashish, odat, yo‘sin, ravish kabi ma‘nolarni ifodalab, biror bir tilning o‘ziga xos fonetik, leksik va grammatik xususiyatlariga ega bo‘lgan eng kichik qismidir. Lahja (arabcha so‘z bo‘lib, ifoda, so‘z, sheva, ovoz kabi ma‘nolarni ifodalaydi) shu xususiyatlarni o‘zida birlashtiruvchi shevalar yig‘indisidir. Masalan, o‘g‘uz lahjasi, qipchoq lahjasi kabi. Mazkur atama ba‘zan tor ma‘noda, ya‘ni sheva ma‘nosida

qo‘llanilishi ham uchraydi. Masalan, Vodil qishloq lahjasi haqida bir necha so‘z kabi. [2:4]

O‘zbek tili turkiy tillarning barcha xususiyatlarini o‘zida mujassam etadi va shu orqali tilimizda 3 ta lahja shakllangan: qarluq, qipchoq, o‘g‘uz. Areal nuqtayi nazardan qaraganda, Ishtixon tumani shevasi Samarqand viloyatining boshqa hududlari singari qipchoq shevalari guruhiga kiradi hamda qipchoq lahjasiga xos bo‘lgan xususiyatlarini o‘zida aks ettiradi. Bu sheva tuman aholisining kundalik turmushida va aksariyat hollarda so‘zlashuv uslubi doirasida qo‘llaniladi.

Ushbu shevaning lingvistik xususiyatlari, xususan, ayrim til birliklarining fonetik, leksik va grammatik xususiyatlariga to‘xtalib o‘tamiz.

### **Ishtixon shevasining fonetik xususiyatlari**

1. Unli tovushlarining o‘zgarishi “a” unlisi, ba’zan “o” sifatida talaffuz qilinadi. Misol uchun, “qara” o‘rniga “qora”.

Yoki “i” unlisi “e” ga nisbatan o‘zgaradi. Masalan, “kir” o‘rniga “ker”.

2. Qo‘sh undoshlarning ishlatilishi. Ba’zan so‘zlarda undoshlar cho‘zilib talaffuz qilinadi. Misol uchun, “bolalar” o‘rniga “bollar”, “keladi” o‘rniga “kelladi”.

3. So‘z oxiridagi tovushlarning qisqarishi: “qiladi” o‘rniga “qiladi”, “bo‘ladi” esa “bo‘lad”.

### **Leksik xususiyatlari**

Mahalliy so‘z va iboralar doirasidagi ayrim so‘zlar adabiy tildan farq qiladi yoki o‘ziga xos bo‘ladi:

Chuydir – chaqmoq toshi

Shapaloq – qarsak yoki tarsaki o‘rniga ishlatiladi.

### **Grammatik xususiyatlari**

Shevada qisqa shaklda so‘zlashish holatlari ko‘p uchraydi. “Men boryapman” – “Men boropman” tarzida talaffuz qilinadi.

Hozirgi zamon ko‘rsatkichlari, “yapti” yoki “yapti-ku” shaklida bo‘ladi. Misol uchun, “U kelyapti-ku”.

### **Bu shevada ko‘p foydalaniladigan so‘zlar.**

Qarindoshlikni bildiruvchi soʻzlar:

Bobo (otaning otasi) – katta ota

Buva (otaning onasi) – ana

Ona – aya

Kelinoyi – yanga

Pochcha – jezda

Opa – apacha

**Koʻchada yoki biron kishi bilan soʻzlashuvda ishlatiladigan soʻzlar:**

Tezda – paqqos

Yugur – chop.

**Uy-roʻzgʻor buyumlari:**

narvon – shoti

chelak – satil,

supurgi – shipirtgi,

deraza – rom,

uyning tomi – cherdak.

Yuqoridagilardan koʻrinib turibdiki, oʻzbek tili shevalari judayam xilma-xil va bu oʻzbek tilining lugʻat tarkibi judayam boy ekanligini koʻrsatadi. Samarqand viloyatidagi shevalar, asosan, qipchoq lahjasi tarkibiga kiradi. Ayrim hududlarda, jumladan, Samarqand shahri shevasida fors-tojik tillar oilasiga mansub tillarning taʼsiri koʻproq seziladi. Biz oʻrganayotgan Ishtixon tumani shevasini ham yaxlit, yaʼni bir xil deyish notoʻgʻri. Chunki tuman markazi va Mitan shaharchasida istiqomat qiluvchi kishilar shevasida qarluq elementlari uchraydi. Qolgan qishloq hududlaridagi shevalar sof qipchoq lahjasiga kiradi.

Xulosa oʻrnida aytish mumkinki, shevalarda qoʻlaniladigan leksik birliklar, ularning xususiyatlarini oʻrganish kelgusida oʻzbek tili leksikasining yanada boyishiga, chetdan kirib kelayotgan yangi soʻzlarning muqobilini topishga yordam beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ё.Ёкубов “Ўзбек шевалари”, Тошкент, 1982.

2. Й.Ёқубов “Ўзбек тилининг диалектологияси”, Тошкент, 1989.
3. “О‘zbek tili dialektlarining lug‘ati”, Toshkent, 2001.
4. Qoriboy Jo‘rayev “О‘zbek dialektologiyasi asoslari”, Toshkent, “О‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2006, 200 b.